

AXLOQ VA TA'LIMNI QADRIYATDA TUTGAN O'RNI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

Muhammadjonova Sarvinoz Maxmudjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili va adabiyoti fakulteti

21.88-guruh talabasi

Abstrakt: Bu maqolada axloq va tarbiya, xulq-atvor masalalari alohida ko'rib chiqilganligi, axloq va tarbiya masalalari qayerda boshlanishi ya'ni mujassam bo'lisi kerakligi haqida aytib o'tildi. Eng muhimi bobolarimizning keng fikrlari ham o'rinn oldi.

Key words: Ta'lif, tarbiya, xulq-atvor, axloq, axloqshnoslik.

Kirish: Barchamizga ma'lumki, inson onaning qornida rivojlanadi va dunyoga kelgach, ona uni asta-sekin ulg'aytiradi. Inson hech narsadan xabarsiz yaraladi, bu dunyoni anglatadigan va bildiradigan ham bu ona. Demak biz tarbiyani ham axloqni ham onadan o'rganamiz. Albatta, ta'lifning bir qismini ham bizga onamiz o'rgatadi. Axir ta'lif o'rgatuvchilar ham kimningdir onasi hisoblanadi shunday emasmi. Bobolarimizdan qolgan bir gap bor, **tarbiya oiladan boshlanadi**. Xalqimizda yana bir hikmatli maqol bor, **qush uyasida ko'rganini qiladi**. Jamiyatda, insonlar bilan birga muloqot qilgangizda, siz albatta uyingizdagi tarbiya va axloq muhitni ko'rsatasiz. "Axloq" so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan "xulq" so'zining ko'plik shaklidir. Axloq – insonlarning bir-biriga jamiyatga oilaga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, odoblari va xulq-atvorlari majmui hisoblanadi. Inson dinidan, qonunlaridan qat'iy nazar axloqliy, tarbiyalari va qadriyalar hurmat qilib, e'zozlovchi va unga amal qiluvchi bo'lisi kerak. Buni inkor etish mumkin emas, chunki barcha dinda va qonunlarda bu fikrlar mavjud va talab etiladi. Xabaringiz borki, dinimiz har bir insonni kamol toptirishga va bilimli bo'lishga undaydi. Albatta, ta'lifdan va qadriyatlarimizdan xabardor bo'lish uchun axloqli bo'lish muhim. Biron kasbning egasi bo'lish uchun ham inson albatta tearnroq fikrlaydi. Bu kasb u uchun foydalimi va bu kasbni egallasa uni uddasidan chiqa oladimi yoki shunga o'xshash bir qancha narsalar haqida fikr yuritadi. Bu barcha qarashlar axloq tufayli yuzaga keladi. Vatanimiz rivojlanishi va uning kuchli mamlakatlar qatoridan joy egallashi bu albatta biz yoshlarning va bizdan keyin keladigan avlod qo'lida hisoblanadi. Mamlakat axloqi kamol topgan, uni har tomonlama rivojlantirgan, ma'naviy va ma'rifiy qarashlarini yetuk darjada shakllantirgan insonlarni kutadi va chorlaydi. Yana e'tiboringizni oilaga qaratmoqchiman. Tarbiya oiladan boshlanadi degan fikrlarni eshitganimda avloddan avlodga o'tib keloyatgan bir hikmatli so'z yodimdan o'tadi: 'Tarbiya yo hayot yo

mamot yo najot yo halokat yo saodat yo falokat masalasidir. Shu kabi yana bir qancha nazariy fikrlar va qarashlar mavjud. ⁱⁱ*Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o’rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg’oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog’i va albatta tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlanirmaoq lozim.* Hozirda ayrim maktablarda ta’lim va tarbiya hammasi birdek o’qitiladi lekin afsuski uqitilmaydi. Bu bizning hozirda rivojlanib kelayotgan yoshlarimizga ko’proq bog’liqdir. Ular bir narsani anglab yetishlari lozimki, ta’limingiz va tarbiyangiz mo’tadil bo’lmas ekan, hech qachon qadriyatlariningizni davom ettira olmaysiz. Shaxsan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham shunday deganlar **“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so’rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.** Inson har doim bir ishni qilayotganda, uni birinchi marta qilayotgandek boshlashi kerak, shunda albatta, rivojlanish bo’ladi. Biz axloqni ta’limda kengroq o’rganadigan bo’lsak, Etika atamasi orqali chuqorroq bilimga ega bo’lishimiz mumkin. Bunga qo’shimcha ravishda axloqshunoslik fanini ham aytib o’tish mumkin. Axloqshunoslik fani yaqinda yoki bir necha asr oldin paydo bo’lib qolgan fan emas balki bu fan qadimdan mavjuddir. Axloqshunoslik fani fan sifatida axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan u axloqni: bayon qiladi, tushuntiradi o’rgatadi.

Qadriyatlar - inson o’zligini anglashi va har doim mo’tadil, yomon tomonga og’ishmay turishi uchun yaratiladi va ularga amal qilinadi. Bu qadriyatlarga faqat o’z vatanida amal qilinmay, balki o’zga yurtlarda ham buni ko’rsatib, uni oshkora qilish va bundan faxrlanish lozim. Faraz qilaylik, sizning yurtingizga o’zga yurtan mehmon keldi, lekin siz uni qaysi mamlakatdan ekanligini bilmaysiz va qiziqyapsiz. U o’zida, hozirda xalqida rivojlanib kelayotgan va hamma birdek amal qilib kelayotgan biron qadriyatini mujassam qiladi. Siz buni ko’rib, albatta savolningizga javob topa olasiz. Bir narsani aytish joizki, qadriyatlardan o’z maqsadlarining yo’lida emas, balki ular bizni kimligimizni va qaysi yurt farzandlari ekanligimizni eslatib turganligi sababli qadrlanadi. Agar siz, falsafiy jihatdan ham diniy jihatdan ham ta’lim va tarbiyaning o’rnini qadriyatlarda aks ettira olsangiz, siz albatta shu vatanga kerakli insonsiz.

ⁱ Abdulla Avloniy.

ⁱⁱ Abdulla Avloniy hikmatlaridan.

Adabiyotlar:

1. [https://fayllar.org.](https://fayllar.org)
2. Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 75-84.
3. Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.
4. Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>
5. Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 135-140.
6. Zaylobidinovna R. G. et al. “AYOL” KONSEPTI BILAN BOG ‘LIQ INGLIZ XALQI GEORTONIMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 518-523.
7. Hikmatlar.uz
8. O'zMe. Birinchi jild. Toshkent 2000